

NUTQ RIVOJLANISHIDA ILK BOLALIK DAVRI PSIXOLOGIYASINING O‘RNI VA AHAMIYATI.

ADPI talabasi S.Xusanova

Annotatsiya: Ushbu maqolada ilk bolalik davrida nutqning paydo bo‘lishi, rivojlanishi va uning kattalar va bola hayotidagi o‘rni va ahamiyati tushuntiriladi. So‘zlarni to‘g‘ri tanlagan holda, bolalarga fikrlarini to‘g‘ri yo‘naltirishini o‘rgatish jarayonida so‘zlarimiz bola ongida tasvirli qiyofani paydo qiladi va undan harakatlarida ko‘rsatishi tushuntirilgan.

Kalit so‘zlar: Ontogenez, ilk bolalik davri, go‘daklik davri, nutq, shahs, tafakkur, xulq-atvor, ong, rivojlanish, yosh davri.

▪ Inson ontogenezida uning 1-3 yoshgacha bo‘lgan davri alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki, bu davrda inson zotiga xos, eng muhim sifatlar, xarakter xislati, atrof-muhitga munosabat, xulq-atvor, tafakkur va ong kabi psixik aks ettirishning turli ko‘rinishlari aks etadi. İlk bolalik davri, Go‘daklik davridan so‘ng eng muhim bosqichi hisoblanadi. Bolaning yurishga o‘rganishi, turli predmetlar bilan ovunishi va o‘zi mustaqil xarakatlanishi uning imkoniyatlarini kengaytirib, uning kattalarga bo‘g‘liqligi nisbatan kamayadi. Bu davrda rivojlanishning asosiy xarakteri bolaning to‘g‘ri yurishi, muloqotga kirishishi va predmetli faoliyatni egallash xususiyatlarini tashkil etadi. Tikka va to‘g‘ri yura olish imkoni bolani doimiy ravishda yangi ma’lumotlarni egallashga zamin yaratadi. Go‘daklik davridan, ilk bolalik davriga o‘tish, uning faoliyatida va kattalar bilan muloqotida jiddiy olg‘a siljish bilan ajralib turadi. Ushbu siljish bolada atrofda odamlar va narsa-predmetlarga nisbatan tabaqali munosabatni shakllantiradi.

▪ 1 yoshli va undan sal oshgan bolaning harakatli o‘yinlarda muvaffaqiyatsizlikka uchrashi, ko‘zlagan ishni boshqarishdagi noxush kechinmalar, uning ruhiy dunyosida dastlabki effektiv jazava tuyg‘usini vujudga keltiradi. Odatda, bunday effektiv jazava, bolaning ota-onasi bilan bo‘lgan munosabatlardan qoniqmaslikdan kelib chiqadi. İlk bolalik davrida, bolalarda barcha psixik jarayonlar ma’lum darajada rivojlanar ekan, bu bola ongining rivojlanishiga imkon yaratadi. Tili chiqib, idrok, ong va tafakkuri ancha rivojlangan bola, tevarak atrofda har xil narsaga ongli munosabatda bo‘la boshlaydi. Bola o‘zining turli ehtiyojlarini anglab, o‘zining shaxsini shakllantira boshlaydi. Bu yoshda bolalar „men“ so‘zini tez-tez ishlata boshlaydi. Bu yoshdagi bolalar nutqning rivojlanishi, ularning faoliyati, muloqoti bilan uzviy bo‘g‘liqdir. Bo‘g‘cha yoshidagi bolaning nutqi, ijtimoiy aloqalarni o‘rnatish funksiyasini bajara olmaydi. Buning uchun bolada ichki nutq tarkib topishi, monologik hususiyat kasb etib borishi lozim. Bola nutqning rivojlanishida asosan oilaviy va ijtimoiy muhitning o‘rni katta. Amerikalik mashhur psixolog professor Jerom Brunerning ta’kidlashicha, yahshi ota-ona "farzandi yahshi gapirishni boshlamasdan avval muloqotsiz aloqa o‘rnatadi va shu aloqa yordamida u bilan o‘ynab, bolani rivojlantiradi" degan. Nutq bola hayotining 2 chi yilida ikki bosqichda tarkib topadi. Dastlabki bosqich, 1 yosh ohiridan 1.5 yoshgacha bo‘lgan davri bo‘lib, bolada bu davrda asosan kattalarning unga murojaat qilib gapirgan gapini tushunish qobiliyati o‘tib boradi. Uning lug‘at boyligi ayniqsa, 1 yoshdan keyin ko‘p predmetlarga duch kela boshlagandan keyin, jadallik bilan o‘sa boshlaydi. Predmet nomlarini ham, tez yodlab oladi. Bu passiv nutq deyiladi. 3 yoshga to‘lar paytida predmetlarning vazifalarini to‘la o‘zlashtirgan bolalar, o‘z o‘yinlarida ushbu o‘rgangan predmetdan o‘z vazifalariga ko‘ra ishlatadi. 1-3 yoshdagi bola shakllanishida psixik rivojlanishning o‘ta ahamiyatli ekanligini e’tiborga olgan holda ayrim psixologlar (M, ZAZZO) "Inson tug‘ilgandan to yetuklik davrigacha bo‘lgan psixik rivojlanishning o‘rtasi 3 yoshga to‘g‘ri keladi" deb mulohaza bildiradi. 3 yoshda bolaning so‘z boyligi 250 tadan 700 tagacha yetadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Yosh davrlari va pedagogik psixologiyasi M.G Davletshin, M. Mavlonov, S. Tuychiyeva, Sh. Do’stmuhammedova. Nizomiy nomidagi T.D.P.U 2004-yil
2. G‘aybullayev D, G‘aybullayeva D " Bir yoshdan uch yoshgacha bo‘lgan bolalar tarbiyasi". Onalar va maktabgacha tarbiya muassasalari uchun uslubiy qo‘llanma Toshkent: Ilm-ziyo 2004-yil
3. Ivanov I, Zufarova M, "Umumiy psixologiya", O‘zFMJ, 2008
4. Sh. A. Do’stmuhammedova, X. A. Tillashayxova, G. Yu. Baykunosova, G. Z. Ziyavutdinova „Yosh davrlari va pedagogik psixologiya“-Darslik. Toshkent Nizomiy nomidagi TDPU, 2021-yil